

**BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI DASTURIY
VOSITALARDAN FOYDALANISH METODIKASI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalardan foydalanib bo'lajak bo'lajak tasviri ysan'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bayon etiladi. Tasviriy san'at mutaxassisleri uchun zarur bo'lgan asosiy raqamli kompetensiyalar aniqlanadi. Bugungi kunda raqamli davr talablari bilan hamohang samarali pedagogik texnologiyalar tavsiflanadi va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, raqamli ta'lim, kasbiy kompetensiya, raqamli texnologiyalar, o'qitish metodikasi.

**МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ПРОГРАММНЫХ СРЕДСТВ В
РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА**

Аннотация. В статье рассматривается совершенствование методики формирования профессиональной компетентности будущих учителей изобразительного искусства с использованием цифровых технологий. Выделены основные цифровые компетенции, необходимые специалистам в области изобразительного искусства. Описаны эффективные педагогические технологии, отвечающие требованиям цифровой эпохи, и даны практические рекомендации по их внедрению в образовательный процесс.

Ключевые слова: изобразительное искусство, цифровое образование, профессиональная компетентность, цифровые технологии, методика обучения.

**METHODOLOGY FOR USING DIGITAL SOFTWARE TOOLS IN THE
DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS OF
FINE ARTS**

Annotation. This article describes the improvement of the methodology for the development of professional competence of ysan'at teachers in the future image using digital technologies. The basic digital competencies required for fine arts professionals are identified. Today, effective pedagogical technologies are characterized in harmony with the requirements of the digital age and practical recommendations for their application to the educational process are given.

Keywords: fine arts, digital education, professional competence, digital technologies, teaching methodology.

Kirish. Jahon ta'lim tizimida axborot kommunikatsiya-texnologiyalari vositalaridan keng foydalanish, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklar bilan ta'lim oluvchilarni o'z vaqtida tanishtirib borish, ta'limning xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tasviriy san'at sohasida axborot texnologiyalari— kompyuterlar, dasturiy ta'minot, raqamli tarmoqlar va boshqa texnologiyalar yordamida axborotni qayta ishlash, saqlash, uzatish va himoya qilish jarayonlarini o'z ichiga oladigan kompleks sohadir. Kompyuter axborot texnologiyalari sohasi dasturiy mahsulotlar va mobil ilovalar yaratish, kompyuter va server infratuzilmasini boshqarish, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash, veb-resurslarni ishlab chiqish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Bugungi kunda biz

bilamizki axborot texnologiyalari barcha sohalarida jamiyatning biznes, tibbiyot, ta'lim va madaniyat kabi deyarli barcha sohalariga chuqur integratsiyalashgan. Axborot texnologiyalarining asosiy tarkibiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: tarmoqlar texnologiyasi, dasturlash, tizim administratorligi, kiberxavfsizlik, ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt va shuningdek veb-ishlab chiqish shular sirasiga kiradi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Barcha soxalar kabi raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimining barcha bosqichlarini tubdan o'zgartirmoqda. Ayniqsa gumanitar yo'nalishlarda, jumladan tasviriy san'at sohasida bu jarayon o'quv jarayoniga yangi metodik yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Bo'lajak tasviriy san'atda o'z predmet sohasi bilan bir qatorda raqamli muhitda ishlash ko'nikmalariga ham to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari zarur.

Tasviriy san'atning professional kompetensiyasi:

- tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga oid fundamental bilimlar;
- tahliliy va tadqiqot ko'nikmalari;axborot va raqamli manbalar bilan ishlash malakasi;
- vizual va mediakontentni tahlil qilish qobiliyati;
- raqamli savodxonlik, raqamli ekspozitsiyalar va prezentatsiya vositalaridan foydalanish.

Raqamli ta'lim virtual muzeylar, raqamli kolleksiyalar, ma'lumotlar bazalari va 3D-modellash platformalari kabi noyob resurslardan foydalanish imkonini yaratadi. Amaliy jihatdan samarali metodlarga interaktiv onlayn platformalardan foydalanish, talabalarning raqamli loyihalar yaratishi kiradi.

Metodik takomillashtirish yo'nalishlari sifatida o'quv fanlariga raqamli modullarni integratsiya qilish, raqamli vizualizatsiya va arxivlashtirish bo'yicha maxsus fanlar joriy etish, shuningdek axborot kompyuter texnologiyalari va tasviriy san'at kesishmasiga bag'ishlangan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish taklif etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Axborot texnologiyalari zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ular jarayonlarning avtomatlashtirilishi, biznesning raqamli transformatsiyasi, ma'lumotlarga erkin kirish imkoniyatining kengayishi hamda yangi kasblar paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Axborot texnologiyalari metodlari — raqamli texnologiyalar asosida masalalarni hal etishga qaratilgan usullar majmui bo'lib, ular funksional vazifasiga ko'ra turli ko'rinishlarga ega.

Asosiy metodlar:

- Avtomatlashtirish metodi — odam mehnatini dasturlashtirilgan tizimlar bilan almashtirish;
- Algoritmik metod — aniq ketma-ketlikdan iborat algoritmlar tuzish orqali masalani yechish;
- Modellashtirish metodi — real obekt yoki jarayonlarning raqamli modelini yaratish;
- Ma'lumotlarni qayta ishlash metodi — katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish va vizualizatsiya qilish;
- Interaktiv metod — foydalanuvchi bilan tizimning ikki tomonlama o'zaro ta'siriga asoslangan metod;
- Axborot izlash metodi — ma'lumotlar bazalari va internetda ma'lumot qidirish.

Tahlil va natijalar

Raqamli ta'lim muhitiga moslashtirilgan metodik yondashuv tasviriy san'at bo'yicha mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshiradi. Zamonaviy tasviriy san'at mutaxassislari zamon talabidan kelib chiqib, raqamli texnologiyalar bilan ishlay olishi, mediakontentni tahlil qilishi, raqamli ko'rinishdagi loyihalarni ishlab chiqishi va tasviriy san'ag oid o'z ilmiy ijodiy natijalarini onlayn muhitda taqdim eta olishi talab etiladi.

Ta'lim jarayoniga raqamli vositalarni tatbiq etish:

- talabalarda raqamli arxivlar va virtual kolleksiyalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi;
- analitik va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni oshiradi;
- axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tasviriy san'at soxasidagi mutaxassislarini tayyorlashda tasviriy san'at metodikasini raqamli transformatsiya sharoitiga moslashtirish — ularning zamonaviy ilmiy va madaniy muhitda samarali faoliyat yurita olishini ta'minlaydigan muhim bosqichdir.

Xulosa Raqamli vositalarni ta'lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya qilish o'qituvchilar malakasini oshirish, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish va zamonaviy raqamli resurslarni yaratishni talab etadi. Talabalarning texnik ko'nikmalari bilan bir qatorda ijodiy salohiyatini rivojlantirish ham tasviriy san'at mutaxassis kasbining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim sharoitida tasviriy san'at yo'nalishida ta'lim berish metodikasini takomillashtirish raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi va madaniy- ilmiy faoliyatda samarali ishlay oladigan mutaxassislarni shakllantirishning asosiy omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Savchenko T. V. Professionálne kompetensii v usloviyax sifrovoy transformatsii obrazovaniya // Obrazovanie i nauka. – 2020. – № 6. – S. 42–50.
2. Volkova Ye. N. sifrovye resursy v prepodavanii istorii iskusstva // Sovremennoe obrazovanie. – 2023
3. Азимов, Санжар Самадович. "Психологические аспекты формирования профессионального мастерства будущих учителей American journal of education and learning ISSN: 2996-5128 (online) | ResearchBib (IF) = 9.918 IMPACT FACTOR Volume-3| Issue-3| 2025 Published: |30-03-2025| 64 изобразительного искусства." Вестник науки и образования 21-2 (99) (2020): 105-108.